Harbiy ta’lim fakulteti talabalarida Vatanga sadoqat va burch tuyg‘usini shakllantirish mexanizmlari

Boboyev A.T.

BuxDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalari ongida Vatanga sadoqat va burch tuyg‘usini shakllantirishning asosiy mexanizmlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Unda yoshlarda vatanparvarlik hissini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, harbiy an’analar va ta’lim jarayonining o‘zaro uyg‘unligi muhim omil sifatida yoritilgan. Shuningdek, talabalarda mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va harbiy xizmatga tayyorgarlikni kuchaytirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida Vatanga sadoqat va burch tuyg‘usini samarali shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch tushunchalar: ta’lim-tarbiya islohoti, chaqiriqqacha harbiy ta’lim, talaba, iqtidorli va qobiliyatli yoshlar, Vatanga sadoqat tuyg‘usi, ma’naviy-axloqiy tarbiya.

АННОТАЦИЯ

В статье научно-педагогически проанализированы основные механизмы формирования чувства патриотизма и долга у студентов, обучающихся по направлению «Дошкольное образование». В нем духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, воинские традиции и образовательная деятельность рассматриваются как важные факторы развития чувства патриотизма у молодежи. Также раскрывается значение инновационных педагогических подходов и практических занятий в укреплении ответственности, гражданской позиции и готовности к военной службе у студентов. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на эффективное формирование чувства патриотизма и долга.

Ключевые понятия: реформа образования, довоенное образование, учащийся, талантливая и способная молодежь, чувство преданности Родине, морально-этическое воспитание.

ANNOTATION

This article scientifically and pedagogically analyzes the main mechanisms for forming a sense of patriotism and duty in the minds of students of the pre-military education program. It highlights the importance of spiritual and moral education, national values, military traditions, and the interconnection of the educational process in developing a sense of patriotism in young people. Also, the importance of innovative pedagogical approaches and practical training in strengthening responsibility, Civil position and preparation for military service in students is revealed. Based on the results of the study, scientific and practical recommendations were developed aimed at effectively forming a sense of patriotism and duty.

Key concepts: educational reform, pre-military education, student, talented and capable youth, a sense of loyalty to the Motherland, moral and ethical education.

Kirish. Hozirgi kunda davlatimiz milliy kadrlarni tayyorlash, ilm fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatiga keng jalb etish, ularning o‘z ijodiy va intelektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratib berilmoqda. “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalaridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlar bilan birga Vatanga sadoqatlilik, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish uchun o‘qitiladigan o‘quv kurslarining mazmunida keltirilgan o‘quv materiali alohida ahamiyat kasb etadi.

“Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi talabalarida milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish, tariximiz va madaniyatimiz, Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish umumpedagogik, didaktik hamda psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlarni turli ta'lim shakllari: auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, turli tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshirish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yosh avlodga Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish masalalari azaldan Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, ko‘plab mutafakkirlarimiz asarlarida xalqimizning murakkab tarixiy-madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan voqea hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan oiladan izlash an’anasini uchratamiz. Xususan, oila, Vatan va Vatanga sadoqatga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “O‘tgan avlodlar obidalari”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Axloq fani”, “Olila xo‘jaligi”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida o‘z ifodasini topgan. Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tarbiyalari” asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi. “Har bir millatning saodati va izzati, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq” deb yozadi u, tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi” [6, 34].

Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish va tarbiyalash bo‘yicha bir qator tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilinib, bunda avvalo vatanparparvarlikning turli yo‘nalishlarida shakllanishiga e’tibor qaratadilar. Vatanparvarlik tarbiyasining ilg‘or yo‘nalishlarini tadqiq etgan olimlar I.Y.Murzina, S.V.Kazakova avlodlar nazariyasidan kelib chiqib fuqaroviy vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatadi [7, 155-175]. Polshalik mutaxassis J.Stanislavek vatanparvarlikni ijtimoiy birdamlikning kuchli, millatchilikni esa radikal ko‘rinishi sifatida ta’riflaydi [8]. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar N.A.Yuldasheva, M.M.Raximov yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, ularda vatani va eli bilan fahrlanish, himoyasiga shay turish tuyg‘usini rivojlantirishda adabiy ta’lim o‘rniga e’tibor qaratadi [9, 103]. Shu bilan birga, Sh.M.Jo‘rayev ilmiy maqolalarida oliy ta’lim muassasalari talabalarining harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta’lim muassasasida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlar, harbiy xizmatchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan tadbirlarga alohida o‘rin beradi [4, 12].

Yoshlarni ona Vatan oldidagi burchi, o‘z taqdiri uchun mas’ul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilari hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Oila ta’lim-tarbiya maskani bo‘lib, milliy g‘oya va ma’naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish aynan oiladan boshlanadi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi va bu jarayon yuksak ma’naviyatlilikni talab etadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma‘‘naviy sohalarda ham islohotlar olib borish zaruriyati nazarda tutildi. “Biz uchun, degan edi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov, “…ma‘‘naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma‘‘naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo‘lishi lozim” [3, 138]. Binobarin sog‘lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek sharqona axloq-odob va umumbashariy va ma’naviy qadriyatlar asosida kamol topgan insonni ham nazarda tutmog‘i lozim.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yilning 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda, “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, ... Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatidir”, - dedi [1].

Zero buyuk alloma Abdulla Avloniy aytganidek: “tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir” [5, 139]. Axloqiy hayot, jumladan, axloqiy madaniyat va axloqiy tarbiyaning bosh substansional elementiinson va uning birliklari ekan, bu borada E.T.Dalkonovning

quyidagi falsafiy fikrlarini keltirish mumkin: “Inson va uning birliklari. Ular madaniy borliq yuzaga kelishining sub’yektlari yaratuvchisi va tashuvchilari hisoblanadilar. Ular vatanparvarlikning ham sub’yektlari hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tabiri bilan aytganda, “Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu farzandlarimizni mustaqil fikri, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir” [2, 297]. Demak, Vatanga sadoqat axloqiylik tamaddunlaridan biri hisoblanadi. Axloqiylik esa insonlarning ijtimoiy madaniy qismi tarkibiga kiradi. Axloqiy tarbiya va axloqiy madaniyat mohiyatan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘‘naviy taraqqiyotida namoyon bo‘ladi. Axloqiy madaniyatning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Shu asnoda axloqiy madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita munosabatga kirishadi.

«Axloq – bu xulqlar majmui. Xulq esa ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadilar. Lekin bular kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishdan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi... Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan tashkil topgan» [10, 252-253].

Xulosa. Umuminsoniy qadriyatlar har doim milliy qadriyatlar bilan oziqlanadi hamda milliy ma’naviyatni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy g‘oya negiziga tayanishda butun insoniyatni birlashtirib turuvchi mushtarak omil hisoblanadi. Shundagina biz istiqbolda ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom fikrlaydigan avlodni tarbiyalshga erishamiz. Jamiyat rivojiga olib keladigan ma’naviy axloqiy sifatlar o‘zaro bir-birini tushunish va anglash, mehr-oqibat, ezgulik, adolatllilik, sahovatpeshalik, oil ava Vatanga muhabbat, sadoqat, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik va bosha shunga o‘xshash yuzlab ezgu fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Jamiyat hayotining barqaror rivoji insonlardagi bir-biriga bo‘lgan ishonch, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida yashash, qonunlarning ustuvorligiga ahamiyat berishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari. - Toshkent. “Yangi O‘zbekiston” 2021-yil 19-yanvar.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T., ,,O‘zbekiston” -2007. - 295-297-b.

3. Karimov I.A. Yuksak ma‘‘naviyat-yengilmas kuch. T. Ma‘‘naviyat, 2008, 138-140 bet.

4. Жўраев Ш.М. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг устувор вазифалари // Academic research in educational sciences. 2020. №3.

5. Zokirov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari. Tafakkur-2007, 2-son, 138-140.

6. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolot emas, haqiqat. Tafakkur-2007, 4-son.

7. Мурзина И.Я., Казакова С.В. Перспективные направления патриотического воспитания. Образование и наука. 2019; 21(2):155-175. https://doi.org/10.17853/1994-5639-2019-2-155-175.

8. Stanisławek J. Patriotyzm. Edukacja Filozoficzna 66/2018. DOI: 10.14394/edufil.2018.0015 (Дата обращения: 03.04.2022).

9. Юлдашева Н.А., Рахимов М.М. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш маънавий-маърифий уйғонишнинг асосий муаммоси сифатида. // Современное образование (Узбекистан). 2021. №6 (103).

10. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Тошкент: “Маънавият”, 2002. – Б. 252-253.